

“KONSTITUTSIYA – ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI”**Toshpo'latova Sevinch Quvondiq qizi****Qo'qon davlat universiteti Tabiiy fanlar va iqtisodiyot fakulteti****Inson resurslarini boshqarish yo'nalishi 1-kurs talabasi****+99893-787-88-83****toshpolatova226@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17934623>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, fuqarolarning erkinliklari va farovonligini ta'minlashdagi huquqiy mexanizmlari hamda asosiy qonunning zamonaviy ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Konstitutsiyada belgilangan demokratik tamoyillar – inson huquqlarining ustuvorligi, adolat, xalq hokimiyatchiligi va ijtimoiy davlat konsepsiyasi – mamlakatning barqaror rivojlanishiga asos bo'luvchi omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda konstitutsiyaviy islohotlarning mazmun-mohiyati, ularning ta'lim, iqtisodiyot, sud-huquq tizimi va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga ko'rsatgan ta'siri ilmiy yondashuv asosida o'rganiladi. Shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning yoshlar uchun yaratayotgan imkoniyatlari, ta'lim oluvchilarning huquqiy madaniyatini oshirishdagi roli va erkin hamda farovon hayot uchun mustahkam huquqiy kafolat ekanligi asoslab beriladi. Maqola yakunida konstitutsiyaviy qadriyatlarni keng targ'ib etish va ularni amaliyotga joriy etishni takomillashtirish bo'yicha xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, huquqiy davlat, inson huquqlari, demokratik jamiyat, xalq hokimiyatchiligi, konstitutsiyaviy islohotlar, fuqarolik jamiyati, erkinlik, farovonlik, ijtimoiy davlat, huquqiy madaniyat, yoshlar huquqlari, ta'lim tizimi, sud-huquq tizimi, huquqiy kafolat.

**«КОНСТИТУЦИЯ – ГАРАНТИЯ СВОБОДНОЙ И БЛАГОПОЛУЧНОЙ
ЖИЗНИ»****Тошполатова Севинч Кувандик кызы****Кокандский государственный университет****Естественно-экономический факультет****Кафедра управления персоналом Студентка 1 курса****+99893-787-88-83****toshpolatova226@gmail.com**

Аннотация: В статье анализируются роль Конституции Республики Узбекистан в развитии общества, правовые механизмы обеспечения свобод и благополучия граждан, а также значение Основного закона в современной общественно-политической жизни. Закреплённые в Конституции демократические принципы – верховенство прав человека, справедливость, народовластие и концепция социального государства – рассматриваются как основополагающие факторы устойчивого развития страны. В исследовании на основе научного подхода изучаются содержание и сущность конституционных реформ, их влияние на деятельность образования, экономики, судебной системы и институтов гражданского общества. Обосновываются возможности, которые новая Конституция создает для молодежи, ее роль в повышении правовой культуры студентов и надежная правовая гарантия свободной и благополучной жизни.

В конце статьи делаются выводы о широком продвижении конституционных ценностей и улучшении их реализации на практике.

Ключевые слова: Конституция, верховенство права, права человека, демократическое общество, народная власть, конституционные реформы, гражданское общество, свобода, процветание, социальное государство, правовая культура, права молодежи, система образования, судебная система, правовые гарантии.

“CONSTITUTION – THE GUARANTEE OF A FREE AND PROSPEROUS LIFE”

Toshpolatova Sevinch Kuvandik qizi

Kokand State University

Faculty of Natural Sciences and Economics

Department of Human Resources Management 1st year student

+99893-787-88-83

toshpolatova226@gmail.com

Annotation: This article analyzes the role of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in the development of society, the legal mechanisms for ensuring the freedoms and well-being of citizens, and the importance of the fundamental law in modern socio-political life. The democratic principles enshrined in the Constitution – the primacy of human rights, justice, people's power and the concept of a social state – are considered as the fundamental factors for the sustainable development of the country. The study studies the content and essence of constitutional reforms, their impact on the activities of education, economy, judicial system and civil society institutions based on a scientific approach. It also substantiates the opportunities that the new Constitution creates for young people, its role in improving the legal culture of students, and its strong legal guarantee for a free and prosperous life. At the end of the article, conclusions are given on the wide promotion of constitutional values and improving their implementation in practice.

Keywords: Constitution, rule of law, human rights, democratic society, people's power, constitutional reforms, civil society, freedom, prosperity, social state, legal culture, youth rights, education system, judicial system, legal guarantee.

Kirish. Har bir demokratik davlatning taraqqiyoti uning asosiy qonuni — Konstitutsiyada mujassamlangan tamoyillar, erkinliklar va huquqiy kafolatlar bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqimizning siyosiy irodasini, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligini, inson huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etishini aks ettiradi. Bugungi globallashuv davrida davlatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida konstitutsiyaviy normalarning to'g'ri qo'llanishi va ular asosida barqaror huquqiy muhitni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Konstitutsiya - davlatning asosiy qonuni bo'lib, xalqchil davlat prinsiplariga asoslangan. Uning maqsadi, inson huquqlarini himoya qilish, demokratik tizimni ta'minlash va davlat organlarining faoliyatini belgilashdir. Konstitutsiya, davlat va jamoat tuzumini birlashtiradi va davlatning huquqiy asoslarini aniqlaydi. Ushbu qonun, mamlakatning taraqqiyot va farovon hayotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.[1] Shuningdek, mamlakatimizda yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida yangi ijtimoiy-siyosiy muhit shakllanmoqda, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo o'ziga xos mexanizmlari hayotga tatbiq qilinmoqda.

Davlatning fuqarolarga bo'lgan g'amxo'rliги yanada kuchaymoqda, davlat institutlarining faoliyati samaradorligi oshmoqda, inson huquqlari tubdan kengaymoqda. Bu kabi o'zgartirishlarni davlat hokimiyatini yanada demokratlashtirish, davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish va bugungi kun talablariga moslashtirishda muhim ahamiyat kasb etadigan omil sifatida qaraladi. Ta'kidlanganidek, ayni paytda yangi tahrirdagi Konstitutsiya barcha darajadagi davlat organlarining, parlamentning, barcha soha hamda tarmoqlar vakillarining oldiga kechiktirib bo'lmaydigan yangi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarni qo'yimoqda.[2]

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida Konstitutsiyaning roli yanada kuchayib, "inson – jamiyat – davlat" tamoyiliga asoslangan boshqaruv tizimi ilgari surildi. Bu esa fuqarolarning farovon hayotini ta'minlash, erkinliklari va huquqlarini ishonchli himoya qilishda asosiy me'yoriy tayanch bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bois Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini chuqur anglash, uning jamiyat hayotidagi o'rnini ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir. Ushbu maqola aynan shu masalaga bag'ishlanib, Konstitutsiyaning erkin va farovon hayot yaratishdagi huquqiy, ijtimoiy va amaliy asoslarini yoritishga qaratilgan.[3]

1. Konstitutsiyaning davlat va jamiyat hayotidagi o'rnini

Konstitutsiya — davlatning siyosiy-huquqiy poydevori, fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklarini mustahkamlovchi oliy hujjat hisoblanadi. O'zbekiston Konstitutsiyasi xalqchilik, adolat, huquqiylik va insonparvarlik kabi universal demokratik tamoyillarga tayangan holda qabul qilingan. Unda davlat hokimiyati bo'linishi prinsipi, xalqning hokimiyat manbai sifatidagi maqomi va huquqiy davlat barpo etishning fundamental asoslari belgilanadi.

Konstitutsiya jamiyat rivojining strategik yo'nalishlarini belgilovchi hujjat sifatida nafaqat davlat organlari faoliyatini tartibga soladi, balki har bir fuqaroning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy faolligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan, u barqarorlik, huquqiy tartibot va keng xalq manfaatlariga tayangan boshqaruv tizimini shakllantiruvchi normativ huquqiy asosdir.

Konstitutsiya - xalqchil davlat, barqaror taraqqiyot va farovon hayot asosi!" degan ta'rif juda to'g'ri va o'ziga xosdir. Konstitutsiya, bir davlatning asosiy qonuni hisoblanadi va xalqchilik prinsiplariga asoslangan. Uning maqsadi, inson huquqlarini himoya qilish, demokratik tizimni ta'minlash va davlat organlarining faoliyatini tartibga solishdir. Konstitutsiya, mamlakatning taraqqiyot va farovon hayotini ta'minlashdagi asosiy qoidalar va prinsiplarni aniqlaydi. Bu, mamlakatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va huquqiy sohalarida rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan qonunidir. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatchilik, ijtimoiysiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq sohalarini bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi. Shu jumladan, yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatli ta'lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz. Bu maqsadga erishish uchun esa dunyodagi noyob demokratik tuzilma bo'lgan mahalla institutining katta imkoniyatlaridan samarali foydalanish, uning vakolatlarini yanada kengaytirish, pirovard natijada mahallani jamiyatimizning hal qiluvchi bo'g'iniga aylantirish vazifasini o'z oldimizga qo'yimoqdamiz. Muxtasar aytganda, mahalla tinch bo'lsa, yurt tinch bo'ladi. Mahalla obod bo'lsa, butun mamlakat obod bo'ladi", dedi Prezidentimiz. So'nggi yillarda yurtimizda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy hayotning turli sohalarida amalga

oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va bu borada erishilayotgan natijalarni mustahkamlashda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning o'rni va roli barcha insonlar uchun muhim va ahamiyatlidir. Shuningdek, "Konstitutsiya — xalqchil davlat, barqaror taraqqiyot va farovon hayot asosi!" degan hayotiy shiorning mohiyati va ahamiyatini, yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida inson huquq va erkinliklari sohasida mutlaqo yangi bosqichga o'tilganligi qayd etildi. Konstitutsiyamizdagi inson qadr-qimmatini va huquqlari, aholi ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishining yanada mustahkamlanishi, ta'lim sohasi yuksalishi, ayollar, yoshlar, mahallalarning jamiyatimizdagi rolini oshirishga xizmat qiluvchi o'zgartirish va qo'shimchalar, yangi Konstitutsiyaning nihoyatda xalqchilligini ta'minlagan muhim jihatlar deb qarasak mubolag'a bo'lmaydi.[4]

2. Inson huquqlarining ustuvorligi – farovon hayotning poydevori

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson qadri birinchi o'ringa qo'yildi. Inson huquqlarining ustuvorligi tamoyili quyidagi yo'nalishlarda o'z ifodasini topdi:

- shaxsiy va siyosiy huquqlarning kengaytirilishi;
- ijtimoiy va iqtisodiy kafolatlarning kuchaytirilishi;
- ijtimoiy himoya, malakali tibbiy xizmat va munosib turmush darapasini ta'minlashning konstitutsiyaviy asoslari;
- nogironligi bo'lgan shaxslar, ayollar va yoshlarning huquqlarini qo'shimcha kafolatlar bilan mustahkamlash.

Bu o'zgarishlar O'zbekistonda farovon jamiyat va adolatli huquqiy tizim barpo etishning muhim bosqichi sifatida e'tirof etiladi.

3. Konstitutsiyaviy islohotlar va ularning ta'siri

So'nggi yillarda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash va sud-huquq tizimining sifat jihatidan yangilanishiga olib keldi. Jumladan:

- demokratik institutlar faoliyati kengaytirildi;
- parlament va mahalliy kengashlarning vakolatlari kuchaytirildi;
- fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati qo'llab-quvvatlandi;
- korrupsiyaga qarshi kurash, sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash bo'yicha konstitutsiyaviy asoslar yaratildi.

Bu islohotlar davlatning ochiqligi, shaffofligi va xalqparvarligini kuchaytirib, farovon hayot uchun qulay ijtimoiy-huquqiy muhit shakllantirmoqda.[5]

4. Yoshlar uchun konstitutsiyaviy imkoniyatlar

Konstitutsiya yoshlarni mamlakat taraqqiyotining hal qiluvchi kuchi sifatida e'tirof etadi. Yoshlarning ta'lim olish, kasb tanlash, ilmiy izlanish olib borish, mehnat qilish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish va o'z salohiyatini namoyon qilish huquqlari konstitutsiyaviy kafolat bilan himoyalangan[6].

Bu esa talaba va yosh tadqiqotchilar uchun ijtimoiy faollikni oshirish, ilmiy muhitda samarali faoliyat yuritish va mamlakat ravnaqiga munosib hissa qo'shish imkoniyatlarini kengaytiradi.[7]

Xulosa: Konstitutsiya – nafaqat davlatning siyosiy-huquqiy asoslarini belgilovchi hujjat, balki xalqning erkin, obod va farovon hayot kechirishini kafolatlovchi mustahkam poydevordir. Unda belgilangan huquqlar, erkinliklar va ijtimoiy kafolatlar shaxs manfaatlarini ustuvorligini ta'minlaydi, jamiyatning demokratik taraqqiyoti uchun qulay muhit yaratadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya O'zbekistonning zamonaviy rivojlanish talablari, xalqning orzu-istaklari va kelajak avlod uchun yaratilayotgan imkoniyatlarning yaqqol ifodasidir. Uni chuqur o'rganish, amalda qo'llash va konstitutsiyaviy qadriyatlarga hurmat ruhini oshirish farovon jamiyat qurishning muhim omillaridan biridir. Shuning uchun Konstitutsiya haqidagi bilimlarni keng targ'ib etish, yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish va konstitutsiyaviy islohotlarni samarali amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Jadal sur'atlarda rivojlanayotgan dunyoda faqat zamon bilan hamnafas odimlayotgan, jamiyat va davlatni modernizatsiya qilish uchun zarur islohotlarni amalga oshirayotgan davlatlarga raqobatbardosh bo'la oladi. Bu oddiy va asl haqiqat, o'z navbatida, Yangi O'zbekiston uchun yangi siyosat va mamlakat taraqqiyoti uchun uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqishni hayotiy zaruratga aylantirdi. Bundan ko'rinib turibdiki, hozirgi kundagi islohotlar ham aynan davlatimizning boshqa davlatlar bilan birga rivojlanishiga, barcha sohada raqobat qila olishiga zamin yaratadi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, konstitutsiya, bir davlatning bosh qonuni hisoblanadi va xalqchilik prinsiplariga asoslangan. Uning asosiy maqsadi, inson huquqlarini himoya qilish, demokratik tizimni ta'minlash va davlat organlarining faoliyatini tartibga solishdir. Bu qonun, mamlakatning barqaror taraqqiyotini va farovon hayotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, biz yoshlar uchun ham huquq va burchlarimiz, erkinliklarimiz konstitutsiyamizda nazarda tutilganidek, belgilab qo'yildi. Shu bilan bir qatorda bizga keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Chunki, davlatimiz barcha davlatlar bilan xalqaro munosabatlarda ham ancha yetakchi hisoblanadi. Mana shunday tinch va obod yurtda yashayotganimizdan, yurtboshimizning xalqchilligi bizga doim kuch va shijoat beradi. Bundan keyin esa biz yoshlar doimo olg'a qadamlar bilan yurtimizning bayrog'ini ko'klarga ko'tarishga, unga sadoqat bilan xizmat qilishga yanada kuch-g'ayrat topamiz.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. Karimov, I.A. *O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida*. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
3. Mirziyoyev, Sh.M. *Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi*. – Toshkent, 2022.
4. G'aniyev, K. *Konstitutsiyaviy huquq asoslari*. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020.
5. Jo'rayev, Q. *Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot*. – Toshkent: Tasvir, 2019.
6. Abduqodirov, A. *Inson huquqlari va demokratik tamoyillar*. – Toshkent, 2021.
7. Toshpo'latov, A. (2025). "KONSTITUTSIYA - XALQCHIL DAVLAT, BARQAROR TARAQQIYOT VA FAROVON HAYOT ASOSI!". Yevrosiyo Ijtimoiy Fanlar, Falsafa Va san'at Jurnal, 5(9), 100–106. Retrieved from <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/60763>
DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17250266>